MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMAN MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-16-MAY
2026-YIL

doi

Google Scholar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2026-yil 15-16-may)

JIZZAX-2026

Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi natijasida buxgalteriya hisobi tizimlari to‘liq raqamlashtirilishi va avtomatlashtirilishi kutilmoqda. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirish, boshqaruv sifatini yaxshilash hamda zamonaviy raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Karimov A.A. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
3. To‘xliyev N., Abdullayeva Sh. “Zamonaviy axborot texnologiyalari”. – Toshkent, 2022.
4. Romney M., Steinbart P. “Accounting Information Systems”. – Pearson Education, 2020.
5. Laudon K., Laudon J. “Management Information Systems”. – New York, 2021.

AXBOROT-KOMMUNIKATSION TIZIMLAR VA TARMOQLARDAGI ZAMONAVIY TAHDIDLAR

Nuraliyev To’lqin Alimardanovich

O‘zMU JF Amaliy matematika kafedrasi o’qituvchisi

Savronov Akbar Rizo o‘g‘li

Rustamov Sulaymon Furqat o‘g‘li

Mo‘minov Sanjar Marat o‘g‘li

Olimjonov Suxrob Rustam o‘g‘li

O‘zMU JF talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsion tizimlari (AKT) va tarmoqlarida yuzaga kelayotgan kiberxavf-xatarlar, ularning tasnifi va jamiyat barqarorligiga ta’siri yoritilgan. Tadqiqot davomida korporativ tarmoqlardagi zaifliklar, inson omili bilan bog‘liq xatoliklar va axborotni himoya qilishning iqtisodiy-tashkiliy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kibertahdid, korporativ tarmoq, kompyuter jinoyatchiligi, axborot kanali, kiberxavf, kriptografiya, inson omili.

Jamiyat va davlat boshqaruvining barcha sohalarida AKT keng qo‘llanilishi natijasida kibertahdidlar soni va murakkabligi keskin oshdi. Axborot xavfsizligiga tahdid deganda axborotning buzilishi yoki yo‘qolishi xavfiga olib keluvchi, himoyalanuvchi ob’ektga qarshi qilingan harakatlar tushuniladi. Bu o‘rinda asosiy e’tibor barcha axborotlarga emas, balki mulk egasining fikricha kommertsiya va

strategik qiymatiga ega bo‘lgan ma’lumotlar qismiga qaratiladi. Hozirgi kunda biznes va davlat boshqaruvining elektron vositalarga bog‘liqligi sharoitida, mashina vaqtining yo‘qolishiga olib keluvchi hatto kichik hujumdan kelgan zarar ham juda katta raqamlar bilan o‘lchanmoqda.

Tarmoq texnologiyalari rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kompyuter hujumlaridan keladigan zarar kam edi, biroq bugungi kunda vaziyat tubdan o‘zgardi. Korporativ tarmoqlarda axborotning ruxsatsiz foydalanishga yoki modifikatsiyalanishga moyilligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

· Ishlanadigan va saqlanadigan axborot hajmining mislsiz darajada ortishi; · Ma’lumotlar bazasida maxfiylik darajasi turlicha bo‘lgan axborotlarning to‘planishi;

· Resurslardan foydalanuvchilar doirasining kengayishi va masofaviy ish o‘rinlarining ko‘payishi;

· Internet global tarmog‘idan foydalanishning kengayishi va axborot almashinuvining to‘liq avtomatlashtirilganligi.

· Xavfsizlikka tahdid manbalari shartli ravishda ichki (tizim ichidagi) va tashqi (tizimdan tashqaridagi) manbalarga bo‘linadi. Bunday ajratish juda muhim, chunki bitta turdagi tahdid (masalan, o‘g‘irlik) uchun ichki va tashqi manbalarga qarshi kurashish usullari turlicha bo‘ladi.

Axborot xavfsizligini ta’minlashda himoya siyosatini to‘g‘ri tuzish birlamchi vazifadir. Bunda asosiy iqtisodiy qoida amal qiladi: tashkilotning himoya tizimi uchun sarflaydigan xarajatlari, agar hech qanday choralar ko‘rilmaganida kutiladigan ehtimoliy yo‘qotishlardan oshib ketmasligi shart.

AKT tarmoqlaridagi tahdidlarga qarshi kurashish uchun kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi. Bunga kiberxavfsizlik sohasida mustahkam qonunchilik bazasini yaratish, kriptografiya, monitoring va IDS/IPS kabi zamonaviy himoya mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, kadrlar malakasini va aholining raqamli savodxonligini oshirish kiradi. Faqatgina ana shunday choralar orqali axborot jamiyatining barqaror va xavfsiz rivojlanishini ta’minlash mumkin.

Xavfsizlikka tahdid manbalari shartli ravishda ichki (tizim ichidagi) va tashqi (tizimdan tashqaridagi) manbalarga bo‘linadi. Bunday ajratish juda muhim, chunki bitta turdagi tahdid (masalan, o‘g‘irlik) uchun ichki va tashqi manbalarga qarshi kurashish usullari turlicha bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eng xavfli tahdidlar foydalanuvchilar, operatorlar va tizim ma’murlarining atayin qilmagan xatoliklari natijasida yuzaga keladi. Bunday xatoliklar niyati buzuq shaxslar foydalanishi mumkin bo‘lgan "nozik joylar"ni (vulnerabilities) yuzaga chiqaradi. Zarar o‘lchami bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turuvchi axborotni o‘g‘irlash holatlarida ko‘pincha tashkilot shtatidagi xodimlar aybdor bo‘lib chiqadi. Ayniqsa, "xafa bo‘lgan" xodimlar tizim tartibi bilan tanish bo‘lganliklari sababli eng samarali ziyon yetkazish imkoniyatiga ega. Shu sababli, xodim ishdan bo‘shatilganda uning huquqlari bekor qilinishi qat’iy nazorat ostida bo‘lishi lozim.

Global tarmoqlar bilan bog‘langan quvvatli axborot kanallarining mavjudligi, agar tizim ustidan yetarli nazorat bo‘lmasa, ruxsatsiz kirishlar uchun keng yo‘l ochadi. AQSh Axborot tizimlarini himoyalash agentligi tomonidan o‘tkazilgan testlar shuni

ko‘rsatadiki, kompyuterlarning 88 foizi axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan ruxsatsiz foydalanish uchun ochiq bo‘lgan zaifliklarga ega. Internetda ishlash tajribasi shuni ko‘rsatadiki, deyarli har bir internet-server kuniga bir necha marta suqilib kirish urinishlariga duch keladi.

Foydalanilgan adabyotlar.

1. Нуралиев Т. А. ва бошқалар. Oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishning taqribiy-analitik usuli. International Journal of scientific and Applied Research, 2024.

2. Rustamov M., Nuraliyev T. Giperbolik tenglamalarda kuzatish masalasi matematik modeli tadqiqi. 2024.

3. Nuraliyev T., Xandamov Y. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish. 2022.

TA’LIM PLATFORMALARIDA BILIMLAR BAZASI ASOSIDA INDIVIDUAL O‘QUV TRAYEKTORIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING ADAPTIV MODELLARI VA ALGORITMLARI HAQIDA

Kuvandikov Jo‘ra Tursunbayevich

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Jurakuvandikov1@gmail.com

Qodirov Zoxidjon Tohir o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Magistratura bo‘limi “Dasturiy injiniring” yo‘nalishi magistranti

zokhidjonyuta@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy axborot-ta’lim tizimlarida o‘quvchilar o‘rtasidagi bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi va kognitiv xususiyatlar o‘rtasidagi farqlanish tobora kuchayib bormoqda. Shunga qaramasdan, bugungi kunda keng tarqalgan ta’lim platformalarining aksariyati barcha foydalanuvchilar uchun bir xil ketma-ketlikda qurilgan o‘quv dasturlarini taqdim etadi. Ushbu tezisda bilimlar bazasiga integratsiya qilingan holda talabaning individual o‘quv trayektoriyasini real vaqt rejimida shakllantiruvchi adaptiv model taklif etiladi. Modelning asosini Bilimlarni Bayes modeli asosida monitoring qilish (BKT) va Qarorlar daraxti (Decision Tree) algoritmlarining uyg‘unlashuvi tashkil etadi. Shuningdek, talabaning joriy bilim holati, test natijalari va platforma doirasidagi harakatlarini dinamik tahlil qilib, uzluksiz o‘quv jarayonini ta’minlovchi “AI Tutor” modulining mantiqiy arxitekturasi bayon etiladi.